

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

2018 yilning yanvar-iyul oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1502,1 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati - **124,4 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **103,9 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **43,0 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlarida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi – **73,1 % ni** tashkil, oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi – **23,9 % ni** tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'iycha 2018 yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1502,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining - 26,2 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 86,3 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 16,9 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 5,8 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalashning 5,0 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 5,7 punkt) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 35,5 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 2,1 punkt) o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.





Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 87,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iycha ko'mir va lignit qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,5 martaga, tog'-kon sanoatining boshqa faoliyati - 1,6 martaga, xom neft va tabiiy gaz qazib olish – 1,0 % ga, tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar – 1,0 % ga oshgan.

Yanvar-iyul oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


2017 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Ko'mir, ming t.			
68,3		100,4	68,3 ↓
Neft, ming t.			
49,7		50,1	100,7 ↑

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1296,9 mlrd. so'mni va o'tgan yilga nisbatan 126,2 % foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,2 % ni (2017 yil yanvar- iyul oylarida - 12,3 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,1 % ni (13,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 33,6 % ni (41,4 %) va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 8,5 %ni (9,4 %) tashkil etdi.

Yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



- Tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish
- Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish
- Boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish
- Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan tosh ko'mir – 47,0 % ga, tabiiy qum - 5,4 martaga, shag'al – 2,4 martaga, o'simlik yog'i (tozalangan) – 2,3 martaga va paxta tolasi – 13,2 martaga, neftmahsulotlari - 15,8 % ga oshgan. Shu bilan birga tuz, un, non (600 gr), aroq, vino, gazoyli (dizel yoqilg'i) ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

Yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
-------------------------------	---	-------------------------------	-------------------

Osh tuzi, t.

19542



3290

16,8



Paxta tolasi, t.








2827



37240

13,2m



2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.			
4030		9129	2,3m ↑
Dizel yoqilg'isi, ming t.			
8,1		7,4	92,2 ↓
Shag'al, t.			
8967		21762	2,4m ↑
Qum, t.			
3916		21177	5,4m ↑
Un, t.			
63545		60420	95,1 ↓
Aroq, ming l.			
1195,6		1001,7	83,8 ↓
Beton, t.			
11807		59624	5,1m ↑



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida bug' uzatish va havoni konditsiyalash hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,5 % ga oshganligi kuzatildi. Gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmining (78,2 %) pasayganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 83,5 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 11,6 % ga, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 0,1 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 645,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 3,9 % ga o'sishi ta'minladi. Jami sanoatdagi ulushi esa 43,0 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 23,0 % dan 2018 yilning yanvar-iyul oylarida 23,9 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 18,3 % ulushini), Jarqo'rg'on (21,5 %), Denov (15,1 %), Sho'rchi (10,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari


(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)



Shu bilan birga eng kam ulushi Muzrabot (1,8 %), Boysun (2,0 %), Oltinsoy (2,2 %) va Uzun (2,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Qiziriq (2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 224,9 % ga), Angor (195,3 % ga), Muzrabot (170,4 % ga), Sho'rchi (142,3 %), Sherobod (137,9 % ga) va Qumqo'rg'on tumanlarida (136,9 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi. Termiz tumanida esa o'sish sur'atining pasayishi (84,4 %) kuzatildi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,4 % ga oshishini ta'minladi. O'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 24,5 % tashkil etmoqda.

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Z.Turanazarov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-46

(0376) 223-07-24